



“ONA UYI” MASKANINING SAMARQAND VILOYATIDAGI FAOLIYATIDAN

*Samarqand Davlat universitetining Psixologiya va Ijtimoiy- siyosiy fanlar
fakulteti 3-bosqich talabasi **Abdumalikova Zilola***

*Ilmiy rahbar: Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida
dotsenti **Yusupov Rahimjon Karimovich**.*

Annotasiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatida yo‘lga qo‘yilgan "Ona uyi" qo‘llab-quvvatlash markazining maskan sifatidagi faoliyati o‘rganiladi. Zamonaviy ijtimoiy himoyaning xalqaro tajribasini keng yoyish uchun ijtimoiy himoya loyihaning maqsadi, vazifalari va uning Samarqand viloyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Zero, ijtimoiy himoyaning O‘zbekistondagi ayollar uchun yordam shaklining yangi tajribasi namuna sifatida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Ona uyi. Ana Uyi. Ijtimoiy yetimlik. Ijtimoiy vaziyat. Oilani huquqiy qo‘llab quvvatlash. Ijtimoiy qo‘llab quvvatlash, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarga ijtimoiy yordam.

O‘zbekistonda "Ona uyi" loyihasi 2024yil 24-aprelda yo‘lga qo‘yilgan. Toshkentda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy yetimlikning oldini olishga qaratilgan "Ona uyi" loyihasining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. 2024-yilda ishga tushirilgan ushbu loyiha Toshkent va Samarqandda o‘z samarasini isbotladi. Bu yerda o‘nlab ayollar va bolalarga yordam bergan 3 ta uy ochildi. Og‘ir hayotiy vaziyatda va yaqin qarindoshlari ko‘magisiz qolganligi natijasida farzandini tarbiyalashdan voz kechmoqchi bo‘lgan onalar, shu jumladan, homilador ayollar (keyingi o‘rinlarda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan onalar) uchun bolalar uylarida "Ona uyi" xizmati yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Qozog‘istonning ‘Ana Yyi’ jamoatchilik jamg‘armasi hamkorligida Samarqand shahrida tashkil etilgan ‘Ona uyi’ markazi yurtimizdagi uchinchi



muassasaga aylandi.'Ana Yyi' jamoatchilik jamg'armasi 2013 yilda tashkil etilgan bo'lib, shu paytgacha Qozog'istonning 18 ta shahrida 21 ta 'Ona uyi' resurs markazi tuzilgan. 'Ona uy'lari tomonidan 7000 nafar ayolga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatilib, ularning farzandlari yetimlikdan saqlab qolingan va o'z oilasida tarbiyalanishi ta'minlangan.

Markazda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 30 yoshgacha bo'lgan, 4 yoshdan oshmagan ikki nafargacha farzandli onalar hamda homilador ayollarga xizmat ko'rsatiladi, deydi 'Ona uyi' kordinatori Zilola Umirova. Ular bu yerda 6 oygacha yashash bilan birga kasb-hunar o'rganib, hayotda o'z o'rnini topishi mumkin. Markazda 8 nafar ona, 12 nafar bola yashashi uchun sharoit yaratilgan. Asosiy maqsad o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotgan, hayotga qiziqishi so'ngan onalarni jamiyatga qaytarish, bolalarni yetimlikdan asrash. Ilk kunlardan muassasamizga ikki ona joylashtirildi. Ulardan birining ikki nafar, ikkinchisining bir nafar farzandi bor. Ikki bolali onaning katta farzandi maktabgacha ta'lim tashkilotiga joylashtirilib, ayni paytda kichik farzandini davolash ishlari olib borilmoqda. Markazda yashovchilarga psixologik, huquqiy hamda tibbiy yordamlar ko'rsatilishi belgilangan. Og'ir ijtimoiy vaziyatdagi onalar 'Inson' ijtimoiy xizmatlar markazi yo'llanmasi asosida qabul qilinadi.

Xulosa qilib ta'kidlash lozim. Ayollarning mehnat bozoriga kirishiga ko'maklashish – kasb-hunarga o'qitish tizimini kengaytirish va ishga joylashishda qo'llab-quvvatlash ro'y beradi. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish – korxonalar bilan hamkorlik qilib, ayollarni doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash amalga oshirilib boradi.

Shunday qilib, "Ona uyi" loyihasi O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining muhim qismi sifatida ayollar va bolalarning hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tashabbus orqali ijtimoiy yetimlikning oldini olish, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishilmoqda. Kelgusida ushdu loyihani yanada kengaytirish va uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etaveradi. Xalqaro tashkilotlar bilan



hamkorlikni rivojlantirish – xorijiy tajribalarni o‘rganish va ilg‘or amaliyotlarni tatbiq etish jarayoni qo‘llab- quvvatlantirilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1- Negmatov I. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Darslik. - Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2024. – 636 bet.
- 2- Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand : SamDU nashri, 2020. – 264 bet.
- 3- O‘zbekistonda “Ona uyi” xayriya loyihasi taqdimoti o‘tkazildi// <https://kun.uz/01959544?q=%2Fuz%2F01959544>
- 4- https://uza.uz/oz/posts/samarqandda-ilk-ona-uyi-ochildi_653846
- 5- Тошматова Ирода. “Она уйи” тadbirkorларни бирлаштираётган ижтимоий лойиҳа//Янги Ўзбекистон 2025 йил 14 февраль, 32-сон.
- 6- ONA UYI XALQARO FONDI (MHIF) Qozog‘iston “ANA UYI” // <http://https://dom-mamy.kz/ru/2024/07/26/dom-mamy-v-uzbekistane>
- 7- Центральная Азия без сирот: совместный проект бизнесменов Казахстана и Узбекистана // <https://forbes.kz/articles/tsentralnaya-aziya-bez-sirot-sovmestnyy-proekt->